

# “Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lug’ati” taqdimoti bo’lib o’tdi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashabbusi bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, f.f.d. Nizomiddin Mahmudov muharrirligi ostida nashr etilgan “Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lug’ati” taqdimoti bo’lib o’tdi.



Unda Departament vakillari, lug’at mualliflari, soha mutaxassislari, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo’yicha maslahatchilari ishtirok etdi.



Taqdimotda ushbu lug’at o‘zbek leksikografiyasidagina emas, balki turkiy xalqlar lug’atchiligida ham dastlabki tajriba ekanligi ta’kidlandi. Shuningdek, ushbu lug’atdan o‘zlashayotgan xalqaro terminlarning ajraluvchi tarkibiy qismlari, ya’ni terminelementlarning ma’nolarini ochib berish, ularning so‘z yasash imkoniyatlarini ko’rsatish, ular ishtirokida yasalgan terminlarga izoh beruvchi qo’llanma sifatida foydalanish mumkinligi aytili.



Lug’at turli soha mutaxassislari, keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.